

O'ZBEK TILIDAGI KELISHIK KATEGORIYASINING ARAB VA RUS TILLARIDAGI KELISHIK KATRGORIYALARI BILAN QIYOSLANISHI

Alimardonov Dilmurod Eshmurod o'g'li

*Oriental universitetining Filologiya va
tillarni o'qitish (arab tili) fakulteti*

Qutbitdinova Mahbuba Shaxobiddin qizi

*Oriental universitetining Filologiya va tillarni
o'qitish (arab tili) fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi kelishiklarning turlari va ularning Arab va Rus tillaridagi kelishiklarga mutanosib va nomutanosib holatlarini o'rganish va tahlil qilish.*

Kalit so'zlar: *kelishiklar, affiksalar, kategoriya, grammatik va hususiy kategoriyalar, flektiv, aglyunitativ, amorf, polisintetik, e'rob.*

Tilshunoslikda tillar, grammatik tizimlariga ko'ra **flektiv, agglutinatив, amorf, polisintetik** kabi turli tiplarga ajratiladi.

1. *Flektiv* – bu tipdagi tillar so'z shakillarining turli grammatik ma'nolarini ifodalash uchun ichki o'zgarishlar (fleksiyalar) orqali o'zgarishi bilan ajralib turadi. Bir fleksiya bir nechta grammatik ma'nolarni anglatishi mumkin. **Masalan:** Rus, Nemis, Lotin, Arab tillari

2. *Agglutinatив* – ushbu tillarda grammatik ma'nolar har bir qo'shimcha orqali alohida, bir-biridan mustaqil tarzda ifodalanadi. Har bir qo'shimcha faqat bitta grammatik ma'noni beradi. **Masalan:** O'zbek, Turk, Fin, Koreys, Yapon.

3. *Amorf* – ushbu tipdagi tillar grammatik o'zgarishga uchramaydi. Grammatik ma'no odatda so'zlarning tartibi yoki yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. So'zlar o'zgarmaydi, bir xil shakilda qoladi. **Masalan:** Xitoy, Vetnam.

4. *Polisintetik* – ushbu tipdagi tillarda bir so'zning ichida juda ko'p grammatik ma'nolarni birlashtiruvchi elementlar (morfemalar) mavjud. Bitta so'z butun bir gapning ma'nosini ifodalashi mumkin. Misol tillar: Eskimos, Chukchi, Yupik.

Ushbu til tiplari tillarning morfologik tuzilishini tushuntirishda ishlatiladi va ular orasidagi farq morfemalarning qanday ishlatilishi bilan bog'liq va shu jihatdan grammatik kategoriyalar umumiy va hususiy turlarga bo'linib o'rganiladi.

Shu jumladan kelishik kategoriyalarining umumiylik va hususiylik jihatlari bor.

Kelishik - ot yoki otlashgan so'zning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi grammatik shakl. Kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar ot va otlashgan so'zlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadi.

Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib xizmat qiluvchi affiksalar kelishik kategoriyalari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. Masalan, *mashqni kitobdan daftarga ko'chirdim* gapida uchta so'z kelishik shaklida kelgan, demak, ushbu gapda uchta tobe so'z mavjud.

Kelishiklarning soni tillarda bir xil emas. U hozirgi zamon **ingliz** tilida ikkita, **nemis** tilida to'rtta, **o'zbek** va **rus** tillarida oltita, **eston** tilida o'n beshta, **arab** tilida uchta, **venger** tilida esa yigirmatadan ortiq kelishiklar bor. **Xitoy-tibet** tillarida va hozirgi **fransuz** tilida kelishiklar umuman yo'q. Kelishik yo'q tillarda gapdagi so'zlar o'rtasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ba'zi tillarda kelishik kategoriyasi bir nechta so'z turkumlariga xos bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida faqat **ot** va **olmosh** rus tilida **ot**, **sifat**, **son** va **olmosh**, arab tilida esa **ot**, va **sifat** kelishiklarda turlanadi. Endi kelishik kategoriyalarini O'zbek, Arab va Rus tillarida qiyoslab ko'ramiz.

O'zbek tilida 6 ta kelishik bo'lib, ular bosh (qo'shimchasiz), qaratqich (qo'shimchasi: ning), tushum (qo'shimchasi:-ni), jo'nalish (qo'shimchasi:-ga -ka -qa), o'rin payt (qo'shimchasi:-da), chiqish (qo'shimchasi:-dan) kelishiklaridan iborat. Shulardan qaratqich kelishigi ot tomondan boshqarilib, hokim so'z egalik qo'shimchasini olib keladi: *kitobning varog'i*. Qolgan tushum, jonalish, o'rin payt chiqish kelishikli otlar fe'l yoki sifat tomonidan boshqariladi: *kitobni varaqladi, kitobga qaradi, kitobda yozilgan, kitobdan olindi*.

Bosh kelishik- shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl kim? nima? qayer? so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha **ega**, **ot kesim**, **undalma** vazifalarida keladi. Masalan:

1. *Toshkent – O'zbekistonning poyaxti* – ega
2. *Men 1-kurs talabasiman.* – ot kesim
3. *Samarqand, bunchalar go'zalsan!* – undalma

Ega va undalmaning grammatik shakli qat'iy: ular har doim bosh kelishikda bo'ladi. Ega va undalmaning o'xshash jihati ham shunda, shakli jihatdan o'xshash bo'lishidir, ya'ni ega ham, undalma ham bosh kelishik shaklida bo'ladi. Farqi: ega kesimga bog'lanadi undalma esa gapdagi biror bo'lak bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, ya'ni gapdagi hech bir bo'lakka bog'lanmaydi.

Rus tilida kelishik kategoriyasi **падеж** deb nomlanadi va rus tilida 6 ta kelishik kategoriyasi bor. Именительный падеж(-) родительный падеж(мр. -а -я жр. -ы -и) дательный падеж (мр. -у -ю жр. -е -и) винительный падеж (-а -ов) творительный падеж (мр. ср.-ом – ем жр. -ой -ей) предложный падеж (мр. -е -и жр. -е -и)

Именительный падеж – независимая падежная форма. (nominative boshlang'ich kelishik) - Кто? - Что?, -kim? -nima?

Gapning bosh bo'lagi yoki asosiy predmet uchun ishlatiladi. Masalan:

1. Это книга – Bu kitob.

2. Собака бегает – It yugurmoqda.

Rus tilida ham bosh kelishik o'zgarishsiz, affiks qo'shimchasiz bo'ladi.

Arab tilida kelishik kategoriyalari **E'rob** deb yuritiladi. Arab tilida uchta kelishik bor, bular: Bosh kelishik, Rof (رفع) va unung qo'shimchasi harakat(ُ) yoki domma tanvin(ْ) bilan ifodalanadi. Qaratqich kelishigi Jar(جرع) va unung qo'shimchasi harakat(ِ) yoki kasra tanvin(ِ) bilan ifodalanadi. Tushum kelishigi Nasb (نصب) va unung qo'shimchasi harakat(َ) yoki fatha tanvin(َ) bilan ifodalanadi. Arab tilidagi qo'shimcha olishlikning o'ziga hos holati tilshunoslikdagi *Aniqlilik kategoriyasiga* bog'liq. Arab tilida aniqlik kategoriyasi va affiksali ko'rinishi mavjud rus va o'zbek tilida bu faqat ma'nolarda ko'rinadi lekin affikslari mavjud emas.

Arab tilida bosh kelishik Rof (رفع) deyiladi va u aniq holatda harakat domma (ُ) bilan noaniq holatdagi so'zda tanvin domma(ْ) bilan ifodalanadi. Masalan:

1. هَذَا كِتَابٌ - bu (noaniq holatda qandaydir) kitob yoki هَذَا الْكِتَابُ bu (aniq holatda) kitob

2. كَلْبٌ يَجْرِي - (kalbun yajrii) yoki الْكَلْبُ يَجْرِي - (al-kalbu yajrii) kuchuk yuguryapti aniq va noaniq holatda. Arab tilida aniq holatdagi so'zlar tanvin olmaydi, noaniq holatdagilar aksar holatda e'robini tanvin bilan ifodalaydi.

Bundan ko'rinadiki 3 tilda ham bosh kelishik bor va ulardan o'zbek va rus tillari affiks olmaydi arab tili esa affiks qo'shimcha oladi lekin harf ko'rinishida emas harakat ko'rinishida oladi. Tarjimada 3 ta til ham mos holatda ko'rinadi.

Qaratqich kelishigi – qo'shimchasi **-ning** kimning? nimaning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va gapda har doim qaratqich aniqllovchi vazifasida keladi. Masalan: *uning hovlisini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi.*

Ot bilan otning birikuvi, ya'ni ot + ot ko'rinishidagi birikuv qaratqich kelishigida kuzatiladi: opamning kitobi.

Qaratqich – qaratqich kelishigi shaklidagi so'z. Qaralmish – qaratqichga bog'lanib kelgan so'z. Masalan, maktabning hovlisi birikmasida maktabning – qaratqich, hovlisi – qaralmish. Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelantirib bog'lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-xodisa, belgi hususiyat, harakat holatning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanini bildiradi.

Rus tilida qaratqich kelishigi **родительный падеж** ga to'g'ri keladi.

Родительный падеж - bu kelishikning rus tilida kalit so'zi bor, “нет кого/чего”. Rus tilida ham kimning? nimaning? savollariga javob bo'ladi, кого? чего?

Bu kelishik- biror narsaning egasi yoki tegishlilikni bildiradi. Uning qo'shimchalari rod kategoriyasiga bog'liq. O'zbek tilida rod kategoriyasining affiksali ko'rinishi yo'q faqat ma'no jihatdan ko'rinadi. Rus tili va Arab tilida rod kategoriyasi bor, farqi rus tilida umumiy(средний род). Bu qo'shimchalarni ko'rib chiqamiz.

он	она	оно
Студент + а	Мама + ы	Море + я
Отец + а	Маша + и] ж,ш,ч,щ	Окно + а
Учитель + я	Муха + и	Общежитие + я
Папа + ы	Подруга + и] к,г,х	
Дедушка + и] к,г,х	Кровать + и	
Дядя + и	Семья + и	
Музей + я	Мать + матери	

Плач **ребёнка** (субъектное) – bolalarning yig’isi –a bu yerda qaratqich kelishigi. Kimning yig’si? Bolalarning

Портфель **учителя** (учитель) (определятельное) – o’qtuvchining portfeli. Bu yerda б harfi я ga almashtirilgan.

Arab tilida *qaratqich kelishigi jar* جر deb nomlanadi. Arab tilida qaralmish (первого члена) – مُضاف, qaratqich (второго члена) – مُضاف اليه.

كتاب طالب – (qandaydir) talabaning kitobi

كتاب الطالب – talabaning kitobi

Arab tilida mudof va mudof ilayhdan tashkil topgan juftlik **izofa** deyiladi. Izofaning birinchi qismi hech qachon aniqlik artikilini olmaydi, ikkinchi qismi holatga qarab, agar ikkinchi qismi al aniqlik artikilini olsa, birinchi qismi ham aniq holatda turganini bildiradi, ikkinchi qismi al aniqlik artikilisiz tursa, unda birinchi qismi ham noaniq holatda hisoblanadi. Mudof ilayhi har doim kasra yoki kasra tanvinga **mabniydir**, mudof rof holatda yoki o’zidan oldingi fe’l yoki ismga qaraydi.

Eslatma! Manmui’ minassorf qoidasiga ko’ra ba’zi so’zlar kasra qabul qilmaydi, ularni o’rniga mansub holatda yoziladi va jar alomati fatha deyiladi.

Tushum kelishigi – qo’shimchasi –ni, kimni? nimani? qayerni? so’roqlaridan biriga javob bo’ladi. Tushum kelishigi doimo –ni shaklida yoziladi. O’zbek tilining she’riy til va og’izaki nutqida –ni –di –ti –i shakllarida qo’llanilishi mumkun.: *Har fasl o’z ishin qilar. Adl qulog’i-la eshit holimi.*

Tushum kelishigi shaklini olgan so’z doimo o’timli fe’lga bog’lanadi. Tushum kelishidagi so’z bilan o’timli fe’l yonma yon kelganda ko’p hollarda tushum kelishigi tushib qoladi: *kitob o’qidim*. Tushum kelishigidagi so’z bilan o’timli fe’l orasida boshqa so’z qo’llanilsa, atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga qo’shilganda tushum kelishigi tushib qolmaydi: *kitobni bugun o’qidim*.

Esda saqlang! Egalik qo'shimchasini olgan ismlarga bog'lanuvchi so'z qaratqich kelishigi shaklida, o'timli fe'llarga bog'lanuvchi so'z kelishigi so'z tushum kelishigi shaklida keladi. Qiyoslang: *derazamning oldi, gulni hidladi*.

Rus tilida kelishik ketma ketligi bo'yicha *родительный надеж* so'ng *дательный надеж* keladi. Lekin o'zbek tiliga qiyoslanyotgani uchun hozir tushum kelishigi *винительный надеж* dan davom ettiramiz.

Винительный надеж – кого?(kimni) что?(nimani) so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishik qo'shimchari jonli jonsiz va rod kategoriyasiga qarab turlicha bo'ladi.

1. Jonsiz murskoy roddagi so'zlar qo'shimcha olmaydi: я вижу музей.
2. Jonsiz sredniy rod so'zlari ham qo'shimcha olmaydi: я открыл окно.
3. jonsiz va jonli otlar jenskiy rodga qo'shimcha oladi, ya'ni unli -a -я -y -ю harflari qo'shimchalarini oladi: Я читаю книгу. Я люблю аудиторию.
4. Jonli murskoy roddagi so'zlar -a qo'shimchasini oladi: я люблю брата.

Arab tilida tushum kelishigi nasb deyiladi va u ham kimni? nimani? Savoliga javob bo'ladi va qo'shimchasi fatha yoki fatha tanvin bilan ifodalanadi. Lekin arab tilining o'ziga hos holati mavjud.

رَأَيْتُ طَالِبًا – talabani ko'rdim

Ba'zi holatlarda arab tilida kelishik qo'shimchalari harakatlarda emas harflarda, ichki harf o'zgarishlarda ko'rinishi mumkun, masalan :

أَخَذْتُ كِتَابَيْنِ - 2ta kitobni oldim.

Bu yerda kitob so'zi ikkilikda keldi. Ya'ni arab tilida son kategoriyasi rus va o'zbek tillaridan farq qiladi. Arab tilida birlik, ikkilik va ko'plik son kategoriyasi mavjud. Rus va o'zbek tillarida esa birlik va 1 dan ortiq sanoq ko'plik deyiladi.

Arab tili ikkilik va ko'plikda kelishiklarni harakatda emas ichki harf qo'shimchasida ifodalaydi. **Tushum** va **qaratqich** kelishiklari alomatini ikkilikda ي ya bilan ifodalanadi. كِتَابَيْنِ bu ikki kitob rof holatda turgani va rof ning a'lomati ا alifdir. Endi ikki kitobni yoki ikki kitobning deyilganda كِتَابَيْنِ ga o'zgaradi va ichki flektiv o'zgarish hosil qiladi.

Endi arab tilida to'g'ri ko'plikning **muzakkar**(erkak) holatini ko'ramiz: فَلَاخُونَ

	Kelishiklar	Noaniq holatda	Aniq holatda
1	Bosh kelishik	فَلَاخُونَ	الْفَلَاخُونَ
2	Qaratqich kelishigi	فَلَاجِينَ	الْفَلَاجِينَ
3	Tushum kelishigi	فَلَاجِينَ	الْفَلَاجِينَ

Arab tilida ko'plik sonida bosh kelishik rofning alomati و vav, qaratqich va tushum kelishigida esa ي ya bilan ifodalanadi.

Endi esa to'g'ri ko'plikning **muannas**(ayol) holatini ko'ramiz: فَلَاخَةٌ

	Kelishiklar	Noaniq holatda	Aniq holatda
1	Bosh kelishik	فَلَاخَاتُ	الْفَلَاخَاتُ

2	Qaratqich kelishigi	فَلَاخَاتِ	الْفَلَاخَاتِ
3	Tushum kelishigi	فَلَاخَاتِ	الْفَلَاخَاتِ

Bu yerda aatin yoki aati qo'shimchasi qaratqich va tushum kelishigining a'lomati hisoblanadi. Aatun yoki aatu qo'shimchasi esa bosh kelishik rofni anglatadi.

Shu bilan arab tilining kelishiklari tugaydi va qolgan qo'shimchalarni old predlog bilan ifodalaydi.

Jo'nalish kelishigi – kimga nimaga savollariga javob bo'ladi va uning qo'shimchasi: – ga (-ka –qa).

Jo'nalish kelishigi fonetik qoida asosda yoziladi. K va q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda fonetik yozuv, g va g' undoshkari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda morfologik yozuv qoidasi bo'ladi.

Bog'ga, bargga – morfologik yozuv;

Qishloqqa, tilakka – fonetik yozuv;

Jo'naliush kelishigining ismning *sintatik* vazifasi quyidagilar:

1. O'rin-joy otlariga qo'shib qayerga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi vazifasida keladi: *U o'qish niyatida shaharga (qayerga?) yo'l oldi;*

2. Payt otlariga qo'shib qachonga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt holi vazifasida keladi. *Majlis beshga (qachonga?) chaqirilgan;*

3. Shaxs narsa otlariga qo'shib kimga? nimaga? So'rog'iga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi: *Sizga (kimga?) o'xshagim keldi. Topshiriqni daftarga (nimaga?) yozib oldaφim;*

4. Harakat nomi shaklga qo'shib nima maqsadda? So'rog'iga javob bo'ladi va gapda maqsad holi vazifasida kelad: *Biz limning qaymog'in olmoqqa keldik;*

Дательный падеж – bu o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigiga to'g'ri keladi va bu kelishik rus tili grammatikasida 3- kelishik hisoblanadi. Bu kelishikning ham kalit so'zlari bor, “дать” Кому? Чему? (kimga? Nimaga?)

Bu kelishikning o'zbek tilidan farqli o'rinlar ham bor. Дательный падеж old predloglarni ham qabul qiladi, ular "к" va "по" predloglari, buni misollarda ko'ramiz.

- **Кому** ты купила цветы? - Gulni **kimga** sotib olding?

- я купила цветы **актёру**. - gulni **aktyorga** sotib oldim.

Он (к) кому? чему	Она (к) кому? чему	Оно (к) чему?
друг - (к) другу	Подруга –(к) подруг е	Поле – (к) пол ю
Отец -(к) отц у	Семья –(к) семь е	Окно – (к) окн у
Ребёнок -(к) ребён ку	Юлия –(к) юли и	Здание – (к) здани ю
Сергей –(к) серг ею	Мать –(к) матери	
Папа –(к) пап е	Дочь –(к) дочери	Кафе – (к) кафе

Дядя –(к) дяде	Мама – (к) маме	Метро – (к) метро
Учитель –(к) учителю	Дочка – (к) дочке	
Музей –(к) музею	Квартира –(к) квартирe	
Санаторий (к)санаторию	Вещь - вещи	

1.Папе – otamga --- к папе – otamning oldiga

2.Музею – muzeyga ---- по музею – muzey bo'ylab

Bu ikki old predloglar qo'shilishi sozlarning qo'shimchalarini o'zgartirmaydi.

Affiksalar olish tartibi o'zbek tilidagi fonetik holatga ko'ra emas, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan jins kategoriyasiga bog'liqdir.

Arab tilida jo'nalish kelishigini o'rnini bosuvchi kelishik mavjud emas ularni old predloglar bilan ifodalash mumkin. Masalan: ga qo'shimchasin إلى old predlogi bajaradi. Masalan:

أَذْهَبَ إِلَى مَدْرَسَةٍ - maktabga ketyabman.

Bu yerda old predlogi maktab so'ziga ham ta'sir qiladi va jar majrur deb nomlanadi. Ya'ni مَدْرَسَةٍ rof holatini (un tanvin olgan holatini) مَدْرَسَةٍ majrur (in tanvin) qiladi. Bu old predlog ta'sirida yuzaga keladi.

O'rin payt kelishigi – qo'shimchasi -da.

O'rin-payt kelishigidagi ismning sintatik vazifasi quyidagilar:

1.O'rin joy otlariga qo'shilib qayerda? So'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi vazifasida keladi:

Dunyoda (qayerda?) o'zbek zaminiga teng keladigan zamin yo'q.

2.Payt otlariga qoshilib qachonga? So'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi:

Novdalarni bezab g'unchalar tongda (qachon) aytdi hayot otini;

3.Shaxs va narsa otlariga qo'shilib kimga nimaga so'roqlariga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi:

Sendi (kimda?) birovning haqqi bo'lsa haqqini unutma;

4.Gapning oxirida kelsa ot kesim vazifasini bajaradi:

Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir.

Rus tilida o'rin-payt alohida kelmagan, lekin bu qo'shimchalarni **предложный надеж** old predloglari bilan ifodalaydi. Bu kelishkning asoslari ko'p, bizning o'rin-payt kelishigaga xosroq varianti bu qayerda? Savoliga javob beradigan va -da old qo'shimchasini olgan so'zlaridir.

Masalan o'rin-payt kelishigi -da qo'shimchasi uchun “в” va “на” old predloglari bajaradi.

Где? он	Где? она	Где? оно
В город=городе	На вставка= вставк	На море
В музей=музе	В деревня= в деревн	На окно=окне
В санаторий=санатори	В аудитория= в аудитории	В общежитие=общежити
В словарь=словар	В тетрадь= тетради	
В шкаф=шкафу	В столовая = столовой	
На пол=полу		
На угол=углу		
В сад=саду		

Arab tilida o'rin payt kelishigini ko'p holatda *في* va *على* old predloglari ifodalaydi.

في rus tilidagi “в” predlogiga to'g'ri keladi ya'ni ma'lum bir yopiq o'ralgan joyning ichida bo'lsa *في* bilan ifodalanadi, masalan:

قَرَأْتُ كِتَابَ فِي غُرْفَتِي – kitobni xonada (ichida) o'qidim.

على predlogi rus tilidagi “на” predlogiga munosibroq keladi ya'ni bir narsaning ustida, ochiq maydonda masalan:

قَلَمٌ عَلَى طَاوِلَةٍ - qalam stolning ustida

Lekin rus tilida ish jarayoni uchun “на” predlogi ishlatiladi, arab tilida esa “في” predlogi bilan ifodalanadi, masalan:

طَالِبٌ فِي الدَّرْسِ - talaba darsda.

Bu ikki old predlogi o'ziga qarashli so'zni jar-majrur qiladi. E'roblanishi u so'z aniq holatda bo'lsa kasra, noaniq holatda bo'lsa kasra tanvin bilan ifodalanadi.

Chiqish kelishigi – qo'shimchasi –dan

Chiqish kelishigidagi ismning sintaktik vazifalari quydagilar:

1.O'rin-joy otlariga qo'shib qayerdan? So'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning o'rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o'rin holi vazifasida keladi: *Toshkentdan* (qayerdan) *ketmoq*;

2. Payt otlariga qo'shib qachondan? So'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday otlar gapda payt holi vazifasida keladi: *Tongdan* (qachon) *ishni bolamoq*;

3.Shaxs va narsa otlariga qo'shib kimdan? Nimadan? So'rog'iga javib boladi :

Temirdan (nimadan) *qattiq*. Bunday otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi;

5.Chiqish kelishigidagi ismlar nima sababdan? So'rog'iga javob bo'lsa sababi holi vazifasini bajaradi: *Bugun rostini qo'yib yolg'on gapirgan odam ertaga nima deganini unutganidan* (nima sababdan?) *rostini aytib qo'yadi va shu bilan o'zini o'zi beburd qiladi*.

Rus tilida chiqish kelishigini old predloglar ifodalaydi. Ya'ni rus tilidagi **родительный падеж**ning bir qismi bo'lgan, от кого? от чего? от куда? (Kimdan? nimadan? qayerdan?) savollarga javob bo'ladigan so'zlarga qo'shiladigan qo'shimcha. Masalan:

Он умер **от** болезни – u kasallikdan vafot etdi.

Освободиться **от** страха – qo'rquvdan halos bo'lmoq

Из дома поехала в театр – uydan teatrga ketdi

Arab tilida chiqish kelishigini ham old predloglar bilan ifodalaydi.

Arab tilida “من” predlogi – dan qo'shimchasiga to'g'ri keladi, masalan:

رَجَعَ مِنْ مَدْرَسَةٍ - maktabdan qaytdi.

Umuman olganda arab tilida jo'nalish (إلى), o'rin-payt(على), chiqish (من) kelishiliklarini old predlog ifodalaydi va old predlogini o'ziga bog'lagan so'z e'roblanadi va ularni hammasini jar(حَرْفُ) holatiga qo'yadi. Bu old predloglar arab tilida jar harflari (حَرْفُ الْجَرِّ) deyiladi

Rus tilidagi ohirgi 2 ta padej bizga deyarli to'g'ri kelmaydi. Ular haqida qisqacha to'xtalamiz.

Творительный падеж- кем? чем? с кем? с чем? –kim bilan? –nima bilan?

я говорю **с** другом(с кем?) – men do'stim **bilan** gaplashyapman (kim bilan?)

я говорю **с** преподавател(ь)**ем** – men o'qtuvchim **bilan** gaplashyapman

она говорит **с** подруг**ой** – u (qiz) dugonasi bilan gaplashyapti

она говорит **с** преподавательниц**ей** – u (qiz) o'qtivchisi(ayol) bilan gaplashyapti.

я обычно пью чай **с** молоком(с чем?) – men odatda sutli choy ichaman.(nima bilan?)

O'zbek tilida bu kelishik ko'rinishida kelmaydi balki bog'lovchi hisoblangan so'z “bilan” bog'lovchisi bilan ifodalanadi. Yana boshqa holatda –nima bilan? savoliga, javobni -li so'z yasovchi qo'shimchasi ifodalaydi.

Предложный падеж – о ком? о чём? – kim haqida? –nima haqida?

-О ком ты думаешь?- kim haqida o'ylayapsan?

- О тебе. - sen haqingda.

-О чём вы говорили? - nima haqida gapirdingiz?

-Об этой новой работе.- mana bu yangi ish haqida.

Личные	Местоимения	Указательные	местоимения
ИП	ПП	ИП	ПП
Я	Обо мне	Этот студент	Об этом студенте
Ты	О тебе	Этот вопрос	Об этом вопросе
Он	О нём	Эта студентка	Об этой студентке
Она	О ней	Эта проблема	Об этой проблеме
Мы	О нас	Это письмо	Об этом письме

<i>Вы</i>	<i>О вас</i>	<i>Эти проблемы</i>	<i>Об этих проблемах</i>
<i>Они</i>	<i>О них</i>		

O'zbek tilida bu kelishik ham mavjud emas. Bu kelishikning vazifasini "haqida" ko'makchisi bajaradi.

Kelishik qo'shimchalari ismlarni sintaktik vazifasini ham belgilaydi. Ba'zi kelishiklarni olgan olgan ismlarning sintaktik vazifasi qat'iy. Xususan ega va undalmaning grammatik shakli bosh kelishik shakli hisoblansa, qaratqich kelishigidagi ismning vazifasi faqat qaratqich –aniqlovchi, tushum kelishigidagi ismning vazifasi esa faqat vositasiz to'ldiruvchidir. Jo'nalish o'rin-payt va chiqish kelishiklari ham vositali to'ldiruvchi vazifasini bajara oladi, lekin ularning to'ldiruvchi bo'lishi uchun shaxs va narsa otlariga qo'shilishi talab etiladi (ya'ni ular to'ldiruvchi bo'lishi uchun kimga? Nimaga? Kimda? Nimada? Kimdan? Nimadan? So'roqlaridan biriga javob bo'lishi kerak)

Jo'nalish o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari ko'makchilar bilan sinonim.

Hulosa qilib aytganda bu 3 til arab va rus tillari qisman yaqin bo'lsa, o'zbek tili ko'p jihatdan ulardan farqlanib turadi. Aniqlilik, rod kategoriyasi va kelikshlar, sifatlar bilan moslashish borasida bir biridan farq qiladi. Rus tili bilan o'zbek tilida kelishiklar soni 6 tadan bo'lishiga qaramay ular bir biriga mos kelmaydi hatto ba'zilar bizda mavjud emas. Mening fikrimcha, o'zbekzabon til o'rganuvchilarimiz, o'rganmoqchi bo'lgan tillari orasidagi ushbu mutanosiblik yoki nomutanosiblikni bilishsa, hossatan tilning grammatik xususiyatlarini o'rganishligi ham o'rgatishligiga bir muncha yengillik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne'matulla Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Abdulhakim Oripov – "Arab tili grammatikasi" – "G'ofur G'ulom" nashriyot-matbaasi 2024-yil
2. Nargiza Erkaboyeva – "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" – "Akademnashr" nashriyot-matbaasi 2016-yil
3. М.Н.Аникина – "Лесница учебник-книга по русскому языку"- 2007
4. Сайт orusskompousski.com; на ютуб канале "О русском по-русски" @orusskompousski
5. F.F.N.DOTS.SH.Sharasulova – "Grammatik kategoriyalar" oriental universiteti slayd